



## MUHAMMADRIZO OGAIHY TOMONIDAN TARJIMA ASARLARI BO‘YICHA QILINGAN ISHLAR

**Rustamova Mushtariy Rustamovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Yapon-ingliz filologiyasi 2-kurs talabasi*

*Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi*

*mushtariyrustamova0108@gmail.com*

*+998941215446*

*Ilmiy rahbar: Azimova Iroda Alisherovna*

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya:** *O‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiydan keyingi o‘rinda “ko‘p va xo‘p” ijod qilgan Ogahiyni tarixchi, tarjimon va o‘tkir qalam sohibi sifatida taniymiz. U tarjima sohasida nazm yo‘nalishidagi asarlar bilan birgalikda, nasriy asarlarni ham mohirlilik ila o‘zbek tiliga tarjima qilgan bo‘lib, uning tarjima asarlari o‘zbek adabiyotida beqiyos o‘ringa egadir. Ogahiyning turli yo‘nalishidagi ijod namunalari hozirgi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda.*

**Kalit so’zlar:** *Ogahiy, tarjima asarlar, tarjimon, Najmiddin Komilov.*

XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Xorazm diyorida tarjimonlik sohasi (oldingi davrlardan ko‘ra) yetuk marralarga erishdi. O‘scha davrda Xorazm shahridagi tarjimonlarning soni 82 kishi bo‘lib, ular orasida Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniy, Muhammad Yusuf Rofiy, Otajon Oxun, Domla Otajon kabi ijodkorlar o‘z tarjimalari bilan o‘zbek adabiyotining tarjimashunoslik sohasiga o‘z xissalarini qo‘shganlar.

Ogahiy boshqa sohalar bilan birgalikda, tarjimonlik sohasida ham sermahsul ijod qilgan bo‘lib, u 20 ga yaqin badiiy, axloqiy, tarixiy asarlarni fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bular orasida Nizomiy, Dehlaviy, Sa’diy, Jomiy kabi mashhur hind, ozarbayjon, fors-tojik adabiyoti vakillarining eng yaxshi vakillarining asarlari mavjuddir. Uning tarjimonlik sohasiga kirib kelishi 1848-yil "Ravzatus safo" asarining ikkinchi va uchinchi jildlarini tarjima qilish bilan boshlangan, bu haqidagi ma’lumotlar "Ta’vezul oshiqin" devonida va tarjima qo‘lyozmalarining kirish qismida keltirilgan. Shu bilan birga "Ta’vezul oshiqin" devonida asarlar nom va nom ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan so‘ng Ogahiyning tarjima karvoni ko‘payib borgan. Ular tarjima qilgan 20 ga yaqin asarlarning 9 tasi badiiy, 6 tasi tarixiy, 4 tasi axloqiy yoki falsafiy-axloqiy asarlardir.

Tarjimonning o‘zi qayd etganidek bulardan birgina "Daloyilul xayrot" usmonli turk tilidan (asli arabcha) tarjima qilingan bo‘lib, qolgan 19 tasi esa fors-tojik tilidan tarjima qilingan.

"Qobusnoma" tarjimasini esa Feruz tavsiyasi bilan amalga oshirganini eslab aytgan fikrlari, Ogahiyning bu boradagi faoliyati mohiyatini bizga sharhlab bera oladi: "Mazkur nasihatnomani ilkimga berib dedikim, bu nusxani turkiy tili birla tarjima qil, to turk

tavoyifining avomi dog'i bu pandlardin baha olg'ay va bizning otimiz, sening so'zing olam inqirozigacha zamon avroqida boqiy qolg'ay".

Nima uchun tarjima sohasida ishlaganini Ogahiyning o'zi: "Turkgo'y elim bahramand bo'lsin deb ixlos qalamini avroqi uzra chekdim", deb izohlagan. Bu so'zlarning asosiy sabablaridan biri, u tarjima qilgan asarlarning ko'plari o'zbek tiliga o'girilgan tarjimalardan edi.

Muhammadrizo Ogahiyning tarjimalari va tarjimonlik faoliyati haqida akademik, filologiya fanlar doktori V.Abdullayev, filologiya fanlar doktori J.Sharipov, filologiya fanlar kandidati V.Rahmonov, G'.As-Salom, N.Komilov o'z ishlarida to'xtalib o'tganlar.

"O'zbek adabiyot tarixi" kitobining muallifi Rahmonqul Orzibekov, o'zining ushbu kitobida Ogahiyini nafaqat tarjimon, balki tarixchi sifatida tanishtirib, nasriy yo'nalishdagi chiston, tuyuq, qit'a, ruboiy va she'rlariga birma-bir to'xtalib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra, Ogahiy tarjima asarlarini tanlashda "...didaktik yo'nalishiga, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatiga e'tibor berdi", deb ta'kidlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotchilar orasida to'laqonli e'tiborini Ogahiyning tarjima asarlariga qaratgan inson, professor Najmuddin Komilov bo'lib, u juda ko'p asarlarida tarjimonning asarlari va uning mahorati haqida to'xtalib o'tgan. Misol uchun, Najmuddin Komilovning "Bu qadim san'at" monografiyasida Ogahiyning o'ta mashaqqatli ijodiy mehnatining noyob jihatlari keng tahlil qilingan. Bundan tashqari Najmuddin Komilov tadqiqotlari asosida, Ogahiyning tarjimalarini asl nuxxalarini, boshqa tarjimalari bilan solishtirib, hazrat iqtidoriga, qoyil qolib, nihoyatda yuksak baho bergan. Shu bilan birga Najmuddin Komilov Ogahiyning tarjima ishlarini, ipidan ignasigacha o'rgangan deb hisoblasak bo'ladi. Sababi, professor Najmuddin Komilov nafaqat nomzodlik, balki "Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati" nomli kandidatlik dissertatsiyasida ham bu atoqli adibning san'atkoriligi, tarjimadagi uslub va usullarini keng va batafsil o'rganishga harakat qilgan. Bunday tashqari, tarjimonshunoslik sohasida yozgan deyarli har bir maqolasida Ogahiyning iste'dodiga to'xtalib o'tgan. Shu bilan birga o'zining "Tarjimon mahorati", deb nomlangan asarida Ogahiyning har bir janriga alohida to'xtalib o'tgan.

Bundan tashqari Nusratullo Jumaxo'ja va Abdurashid Abdug'uров kabi olimlarimiz Ogahiyning shoир, muхarrir, tarjimon sifatidagi faoliyatini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlar e'lon qildilar.

Ogahiy tarjima asarlari shunchalik rang-barangki, ularni o'qish jarayonida ajoyib bir san'at namunasini o'qiyotganimizni his etamiz. Nasriy yo'nalishdagi asarlarni tarjima qilishda adibning nafaqat til mahorati, balki, uning so'zlardan qofiya paydo qilgan holda, so'zlarni to'g'ri va go'zal shaklda terish qobiliyati ham muhim rol o'ynaydi.

1991-yilda filologiya fanlar doktori Subutoy (Usmonbek) Dolimov Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Kaykovusning "Qobusnoma" asarini tahlil qilib, nashrga tayyorlagan.

#### Xulosa:

Ogahiy o'zining 65 yillik umri davomida Alisher Navoiydan keyingi navbatda eng ko'p ijod qilgan ijodkor hisoblanadi. Yuqorida keltirilgandek, Ogahiyning tarjima asarlari ko'p sonli olimlar, tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan, ular haqida kitoblar nashr etilgan



bo‘lsada, halihamon hech kim ularning adog‘iga yeta olgani yo‘q. Ogahiy tarjima o‘zbek tiliga tarjima qilgan, jahonga mashhur nasriy, she’riy asarlar, adabiyotning tarjima sohasining rivojlanishida eng ko‘p hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri hisoblanib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Komil Avaz. “Jahon adabiyoti” jurnalı, 2009, 10-сон
2. N.Jumaxo‘ja. “O‘zbek adabiyot tarixi” Toshkent 2019 [434 bet]
3. N.Komilov. “Tarjimon mahorati” Toshkent [194 bet]
4. R.Orzibekov. “O‘zbek adabiyot tarixi” Toshkent [272 bet]
5. Xorazmiy.uz, Olingan 30.05.2023/ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>